

**ABU NASR FAROBIYNING TA'LIM-TARBIYAGA OID FIKRLARINING
BUGUNGI KUNDAGI DOLZARBLIGI**

**Inomjonova Muhtasar Muhiddin qizi
ADPI, Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya
yo‘nalishi 202-guruh talabasi**

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abu Nasr Farobiyning ma’rifatparvarlik uning chuqur falsafiy kuzatishlari asosida yaratilgan asarlaridagi pedagogik qarashlari fikr va g‘oyalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim tarbiya, axloq, shaxs, xarakter, komillik, aql-zakovat, individuallik, dunyoviy ilm, «Fozil odamlar shahri», inson, jamiyat.

Abu Nasr Farobiy (873-950) o‘rta asr sharqining mashhur mutafakkiri, falakiyot, tabobat, musiqa, tilshunoslik, falsafa sohalarida ijod qilgan qadimgi yunon falsafasining Sharqdagi eng yirik davomchisi va targ‘ibotchisidir. U Sirdaryo bo‘yidagi O‘tror (Forob) shahrida tug‘ilgan. U Yunon faylasuflarining asarlarini mutolaa qilish, turli tillarni o‘rganish bilan shug‘ullandi. U o‘z davrining faylasufi, musiqachisi, shoiri, qomusiy olimi sifatida shuhrat qozondi. U “Aql haqidagi risola” “Falsafadan oldin nimani o‘rganish kerak”, “Falsafa manbalari”, “Masalalar manbalari” kabi 160 dan ortiq risolalar yaratdi. [1]

Farobiy yosh avlodni kamolga yetkazishda u yashayotgan jamiyatdagi muhit, hayotiy tajriba, ta’lim-tarbiyaning ta’siri va bu ta’sir natijasida ular o‘zlaridagi ijobiy yoki salbiy xislat-fazilatlarini namoyon qilishlarini aytadi. “Insonlar tug‘ilganda kamolotli bo‘lib tug‘ilmaydi, ularni orasida aslida farq ham bo‘lmaydi, ularning xulqi, faoliyati, hayoti o‘xshash bo‘ladi, keyinchalik esa o‘zgaradi, ya’ni ijtimoiylashuv jarayonida jamiyatda odamlar ming yillardan beri amal qilib kelayotgan qadriyatlarini va me’yorlarni qabul qiladilar. Farobiy ta’lim tarbiyaga bag‘ishlagan asarlarida ta’lim- tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e’tibor berish zarurligi, ta’lim-tarbiya usullari va uslubi haqida fikr yuritadi. «Fozil odamlar shahri», «Baxt saodatga erishuv to‘g‘risida», «Ilmlarning kelib chiqishi», «Aql ma’nolari to‘g‘risida» kabi asrlarida ijtimoiy – tarbiyaviy qarashlari o‘z ifodasini topgan. Farobiy o‘z ishlarida ta’lim – tarbiyani uzviy birlikda olib borish haqida ta’lim bergan bo‘lsa ham, ammo har birining insonni kamolga yetkazishda o‘z o‘rni va xususiyati bor ekanligini alohida takidlaydi. [1]

Farobiy insonning ma’naviy hayotida, asosan, uning ikki tomoniga: aql-idrok ongiga va axloqiga e’tibor beradi. Shuning uchun ta’lim- tarbiya uning fikricha aqliy tomondan ham, axloqiy tomondan ham yetuk qilib yetishtirishga qaratilmog‘i lozim. Ta’lim tarbiya jarayonida nazariy bilim bilan amaliy harakat, odatiy malaka, faoliyat birlashib boradi, yetuklik shu birlashuvning darajasiga qarab yuzaga keladi. Farobiy o‘z qarashlarida insonning aqliy va axloqiy jihatlariga alohida e’tiborini qaratadi va u “Fozil odamlar shahri” asarida o‘n ikki tug‘ma xislatni birlashtirgan kishigina axloqli inson bo‘la olishini ta’kidlaydi. Bular quyidagilar: “Birinchi dan bunday odamning barcha a’zolari mukammal taraqqiy etgan, sog‘lom bo‘lish lozim; ikkinchi dan, tez fahm so‘zlovchining maqsadini tez payqay oladigan bo‘lsin; uchinchi dan, xotirasi juda kuchli va mustahkam bo‘lsin; to‘rtinchi dan, zehni tez va o‘tkir bo‘lsin; beshinchi dan, nutqi ravon, fikri teran, mulohazalarini yorqin bayon eta olsin; oltinchi dan, bilish va o‘rganishga ishtiyoqi baland bo‘lib, bilimlarini charchashni sezmasdan o‘zlashtira olsin; yettinchi dan, nafsini tiya oladigan, qimor o‘yinlaridan jirkanadigan bo‘lsin; sakkizinchi dan haqiqatni sevadigan bo‘lsin; to‘qqizinchi dan g‘ururli va vijdonli bo‘lsin, oliyanob ishlarga intilsin; o‘ninchi dan, mol-dunyo yig‘ishga berilmasin; o‘n birinchi dan, adolatli bo‘lsin, odamlarni adolatga targ‘ib etadigan bo‘lsin; o‘n ikkinchi dan, adolatli bo‘lsin, ammo qaysar bo‘lmasin, adolat oldida qaysarlik qilib, o‘z bilarmonlikka berilmasin, lekin har

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

qanday adolatsizlik, pastkashlik oldida lafzli bo’lsin, o’zi zarur deb bilgan narsasini amalga oshirishda qat’iylik ko’rsatsin, qo’rqmas, jasur bo’lsin, qo’rqish va ojizlikni bilmasin”. [2]

Xulosa qilib aytganda Farobiyning pedagogik qarashlarida axloqiy tarbiyaning ahamiyati, ta’lim-tarbiyaning o’quvchiga yo’naltirilgan yondashuvi, insonning o’z imkoniyatlaridan yuqori darajada foydalanish imkonini beradigan tarbiya va tarbiya usullari kabi masalalar bayon etilgan. Farobiy ta’lim faqat bilimlar bilan cheklanib qolmasligini, ta’lim jarayonida axloq va xarakterni rivojlantirish kabi muhim ahamiyatga ega bo’lgan g’oyalarni ta’kidlab o’tgan. Farobiyning pedagogik qarashlari bugungi kun ta’lim tizimida muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://azkurs.org/abu-nasr-farobiyning-pedagogika-qarashlari.html>
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. -Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
3. Umarjonov, S. (2023). Analysis of the logical views of Fakhr al-Din al-Razi. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, (Special Issue), 73-80.
4. Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari - Toshkent: Universitet, 1998. - 184 b.
5. Saifnazarov, I.S. (2023). Yassaviy merosi turkiy xalqlar ma'naviy hamjihatligini ta'minlovchi omil sifatida. Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar,